

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Z.M.BOBUR NOMLI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

XORIJIY TILLAR FAKULTETI

FRANSUZ TILI VA ADABIYOTI TA'LIM YO'NALISHI

401 - guruh talabasi

Isaqova Sadoqatning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: « Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlarining qiyosiy
va uslubiy jihatlari »

Ta'lim yo'nalishi: - 5111400 - Xorijiy til va adabiyoti
(Fransuz tili va adabiyoti)

ILMIY RAHBAR : Fransuz tili va adabiyoti kafedrasida katta
o'qituvchisi I.O.ANORBOYEVA.

ANDIJON – 2015

REJA:

KIRISH.

Birinchi bob. O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari.

I.1. O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari haqida tushuncha.

I.2. Yordamchi so'z turkumlarining mazmuni va tuzilishi .

I.3. Yordamchi so'z turkumlari turlari .

Ikkinchi bob. Fransuz tilida yordamchi so'z turkumlari .

II.1. Fransuz tilida yordamchi so'z turkumlari haqida tushuncha.

II.2. Yordamchi so'z turkumlari va uning turlari

II.3. Yordamchi so'z turkumlarining nutqdagi o'rni

Uchinchi bob. Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlari qiyosi.

III.1. Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlarining o'hshash va farqli jihatlari.

III.2. Qiyoslanayotgan tillarda yordamchi so'z turkumlari o'qitishda foydalanadigan ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Mundarija

1. KIRISH.....	4-7
Birinchi bob. O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari.	
I.1. O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari haqida tushuncha.....	7-11
I.2. Yordamchi so'z turkumlarining mazmuni va tuzilishi	12-14
I.3. Yordamchi so'z turkumlari turlari	14-17
Ikkinchi bob. Fransuz tilida yordamchi so'z turkumlari .	
II.1. Fransuz tilida yordamchi so'z turkumlari haqida tushuncha. ...	18-28
II.2. Yordamchi so'z turkumlari va uning turlari.....	29-34
II.3. Yordamchi so'z turkumlarining nutqdagi o'rni.....	34-47
Uchinchi bob. Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlari qiyosi.	
III.1. Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlarining o'hshash va farqli jihatlari.....	48-51
III.2. Qiyoslanayotgan tillarda yordamchi so'z turkumlari o'qitishda foydalanadigan ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalar.	51-55
XULOSA.....	56-58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	59-60

KIRISH.

Shunday tezkor o'zgarish va rivojlanish davrida muhtaram prezidentimizning 2012 yil 10 dekabrda mahsus "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi.[6.1.]

O'zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlari keng quloch yoyayotgan bir paytda xorijiy tillarni o'rgatish-o'rganish o'ta zaruriy extiyojga aylandi. Ushbu masalaning muhimligini alohida uqtirib, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: ``Xozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejis emas. Butun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdur``[1. 198.]

Shuningdek, yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch" asarida "... etimologik va qiyosiy lug'atlar chop etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, ...mamlakatimizning jahon kommunikatsiya tizimida integratsiyalashuvini ta'minlash, farzandlarimiz uchun chet tillar, axborot texnologiyalarini har tomonlama puxta egallash borasida qulay imkoniyatlar yaratish kabi bir-biridan muhim vazifalar hal etilishi lozim" ligi [2: 87] to'g'risida to'xtaladi.

Ma'lumki, yosh avlodga malakali ta'lim berish davlatimiz asosiy qonunlarida o'z ifodasini topgan. Respublikamiz ravnaqi hamisha aql-zakovatli yuqori malakali, bilimdon kadrlar salohiyatiga bog'liq. Chet tillar bo'yicha yuksak saviyali mutaxassislar tayyorlash, murakkab va ma'suliyatli ishdir. Chet tillari o'quv predmetlari qatori fransuz tilini ham o'rganish va o'rgatishdan maqsad - zamonaviy talablarga javob beradigan malakali mutaxassislar - o'qituvchilar, tarjimonlar,

tilshunoslar, jurnalistlar yetishtirishga qaratilgan. Zero, yetuk, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash davr talabidir. [3].

Xorijiy davlatlar bilan madaniy munosabatlar rivojlanib borayotgan bir vaqtda qiyosiy masalalarini ilmiy asosda tadqiq qilish, qiyosiy qimmat, saviyasi ta'minlovchi omillarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor A.A.Abduazizov aytganidek, ``til dalillarini ongli ravishda o'zlashtirish, nazariy bilimlar ustida ongli ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borish ham o'z ona tilimizni, ham xorijiy tillarni amaliy o'rganishda katta yordam beradi. [19.50]

Mazkur bitiruv malakaviy ishimiz "Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlarining qiyosiy va uslubiy jihatlari" mavzusiga bag'ishlanadi.

Ishning dolzarbligi:

Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlari mavzusi tilshunoslikda nazariy va amaliy jihatdan puxta o'rganilgan, lekin turli tizimga oid fransuz va o'zbek tillari qiyosiy planida va uslubiy jihatlari alohida o'rganilmagan. Bu jihatdan tanlangan mavzu dolzarbdir.

Ishning maqsadi va vazifalari:

Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlarining nazariy, amaliy, qiyosiy va uslubiy jihatlari o'rganish tadqiqot maqsadini tashkil etadi.

Vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Qiyoslanayotgan tillarda yordamchi so'z turkumlarini o'rganish;
- yordamchi so'z turkumlari turlarini aniqlash;
- yordamchi so'z turkumlarini fransuz va o'zbek tillarida farqli va o'xshash xususiyatlarini aniqlash;

- O'quvchilarga yordamchi so'z turkumlarini o'rgatishda foydalanadigan yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish uslublarini o'rganish va boshqa shu kabi vazifalarni o'z oldiga vazifa qilib belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti:

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda o'zbek va g'arb olimlarining ta'limotlaridagi fikrlariga tayanildi. Yordamchi so'z turkumlarini turli manbalardan ko'rib chiqildi.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi:

Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlari va ularning ma'no turlari xususiyatlari qiyosiy tarzda tadqiq etildi.

Mavzuning metodologik asosi:

Tadqiqotning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari shuningdek, fransuz, rus, o'zbek yirik nazariyotchi olimlarning ilmiy asarlaridagi nazariy xulosalari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishida qo'llanilgan metodlar.

Tadqiqotda qo'yilgan masalani yoritishda hozirgi davr tilshunosligida keng tarqalgan tasviriy qiyosiy metodlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiliklari:

Mazkur tadqiqotda turli tizimga oid fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlarining qiyosiy – uslubiy jihatlari maxsus alohida tadqiq etilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining farazi:

Turli tizimga oid fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlarining nazariy – amaliy, qiyosiy uslubiy jihatlarini qiyosiy o'rganish muhim hisoblanadi. Fransuz va o'zbek tillarida yordamchi so'z turkumlariga doir faktik misollar qiyosiy tahlil qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining qiymati:

Bitiruv malakaviy ishida ko'rilgan masalalar o'zbek tili grammatikasi, fransuz tili grammatikasi, metodika va qiyosiy tipologiya fanlarini o'qitish chog'ida bevosita tadbiq etilishi mumkin.

Ishning tuzulishi va hajmi;

Mazkur bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, xulosadan iborat.

Ishning oxirida ilova etilgan manbalar ro'yxati joy olgan.

Birinchi bob. O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari .

I.1. O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari haqida tushuncha.

So'roqqa javob bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deb ataladi. Bularga ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kiradi. Ko'makchi va uning turlari. Ot va otlashgan so'zlardan keyin kelib, ularni boshqa so'zlarga tobelanish yo'li bilan bog'laydigan yordamchi so'zlar ko'makchi deb ataladi. *O'z qo'li bilan to'g'riladi.* Ko'makchi qaysi so'zdan keyin kelsa, o'sha so'z bilan birgalikda bir so'roqqa javob bo'lib, bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi.[11]

Ko'makchilar quyidagi turlarga bo'linadi:

Vazifadosh ko'makchiilar atash ma'nosini yo'qotib, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan, asli ot, sifat, fe'l, ravish kabi mustaqil so'zlarga tegishli bo'lgan so'zlardir. Bularga quyidagi so'zlar kiradi: ot turkumiga oid: old, o'rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, ro'para, tomon, tashqari, bo'yi, chamasi, holda, yo'sinda; ravish turkumiga oid: oldin, avval, so'ng, keyin, burun, ilgari, beri, beri, buyon, asosan, binoan; fe'l turkumiga oid: atab, qarab, qaraganda, ko'ra, tortib, degan, deya, deb, deydigan, osha, bo'ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay qarata; sifat

turkumiga oid: sababli, qarshi, chogli, doir, muvofiq, o'zga, boshqa.

Ko'makchilarning qo'llanishi va ma'nolari

Ko'makchilar bosh, qaratqich, jo'nalish va chiqish kelishigidagi so'zlardan keyin kelib, bu so'zlarga quyidagi ma'nolarni kiritadi:

1) bosh kelishikdagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

bilan (qisqa shakllari: *-la, ila*) ko'makchisi birgalik, vosita, tez boshlanish, payt, ish-harakat obyekti, holat, maqsad ma'nolarini bildiradi: *Ukasi bilan keldi. Qalam bilan yozdi. Eshik ochilishi bilan kirishdi. Tuni bilan uxlamadi. Baxtiyorlik bilan jilmaydi.*

Uchun (qisqa shakli: *-chun*) ko'makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma'nolarini ifodalaydi: Bolalar uchun qurildi. O'qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Yordamingiz uchun rahmat.

Kabi, singari, yanglig' (ba'zan *misoli* so'zi) ko'makchilari o'xshatish, qiyoslash ma'nolarini ifodalaydi: *Shamol kabi yeldi. Cho'l singari bepoyon. Oy yanglig' chiroyli.*

Sayin ko'makchisi payt, izchillik, davomiylik ma'nolarini ifodalaydi: *Sovuq kun sayin kuchaydi.*

Sari, yoqalab ko'makchilari yo'nalish ma'nosini ifodalaydi: *Dala sari ketdi. Daryo yoqalab yurdi.*

Sababli, tufayli ko'makchilari aloqadorlik, sabab ma'nosini ifodalaydi: *Chaqirilmaganligi sababli kelmadi.*

Orqali ko'makchisi vosita ma'nosini, *chog'li, chamasi* ko'makchilari chama, taxmin, ma'nolarini, *osha, bo'ylab* ko'makchisi makon bo'ylab sodir bo'lish ma'nosini, *bo'yicha* ko'makchisi moslik ma'nosini, *uzra* ko'makchisi biror sath bo'ylab yo'nalish ma'nosini, *ichra* ko'makchisi biror predmetning ichida sodir bo'lish ma'nosini, *degan* ko'makchisi atash ma'nosini, *bo'yi* ko'makchisi davomlilik ma'nosini, *haqida (to'g'risida)* ko'makchilari fikr qaratilgan predmet ma'nosini, *holda (yo'sinda)* ko'makchilari holat ma'nosini ifodalaydi: *Pochta orqali jo'natdi. O'n chog'li odam to'plandi. Asrlar osha*

yetib keldi. Ariq bo'ylab yurishdi. Urush haqida so'zladi.

2) jo'nalish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

Tomon ko'makchisi ham jo'nalish, ham bosh kelishikdagi so'zlarga bog'lanib, yo'nalish ma'nosini, qadar ko'makchisi chegara ma'nosini, ko'ra ko'makchisi sabab, ta'kidlash, qiyoslash ma'nolarini, qarshi ko'makchisi zidlik ma'nosini, qarab, qarata ko'makchisi yo'nalish, olchov ma'nosini, qaraganda ko'makchisi ta'kidlash, qiyoslash manolarini, qaramasdan, qaramay ko'makchilari to'siqsizlik ma'nosini, yarasha ko'makchisi moslik ma'nosini, doir ko'makchisi aloqadorlik ma'nosini, asosan, binoan, muvofiq ko'makchilari tayanch ma'nosini ifodalaydi: Uy tomon ketdi. Kechga qadar kutib o'tirdi. Uning topshirigiga ko'ra yetib kelishdi. Bilimiga qarab baho qo'yiladi. Uning qarshiligiga qaramay vazifa bajarildi. Shu fikrga asosan qaror qilishdi. Odamlarga qarata nutq so'zladi.

3) chiqish kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar:

So'ng, avval, keyin, burun, ilgari ko'makchilari payt ma'nosini, boshqa, tashqari, o'zga, bo'Yak ko'makchilari mustasnoqlik ma'nosini, beri, buyon ko'makchilari payt ma'nosini, nari ko'makchisi ish-harakatning chegarasi ma'nosini, boshlab, tortib ko'makchilari boshlanish vaqt, nuqta ma'nolarini ifodalaydi: Uch yildan keyin paydo bo'ldi. Sendan boshqa hech kimi yo'q. Shu kundan boshlab ishga kirishamiz.

4) qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan qo'llanadigan ko'makchilar: old, o'rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rin, qosh, yoqa, ro'para. Bu ko'makchlardan oldin kelishik qo'shimchasi ba'zan qo'llanmasligi mumkin: Uy oldida to'xtadi. Bog' ichiga kirib ketdi. Devor orasida qolib ketdi. Ko'cha o'rtasida ketyapti. Ko'prik boshida kutib turdi.

Diqqat! -la, -c/tun shakllari o'zi bog'lanib kelgan so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: qo'llarim-la, Vatan-chun.

Uchun, bilan, kabi, singari ko'makchilari qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ham qo'llanishi mumkin: shuning uchun, bunting kabi, shuning singari.

Ko‘makchilar va qo‘shimchalar sinonimiyasi. Ko‘makchilar vazifasi jihatidan ayrim qo‘shimchalarga o‘xshaydi. Ba’zi hollarda ko‘makchilar tushum, jo‘nalish, o‘rin- payt, chiqish kelishiklari qo‘shimchalari o‘mida almashib kelishi mumkin: *Radio orqali eshitdik-Radiodan eshitdik. Ukam uchun oldim - Ukamga oldim. Qalam bilan yozdi - Qalamda yozdi. Borgani haqida gapirib berdi — Borganini gapirib berdi. Kabi, singari, yanglig‘ ko‘makchilari -day(-dek) qo‘shimchalari bilan sinonim bo‘lishi mumkin: Shamol kabi yeldi - Shamolday yeldi. Biroq hamma vaqt ham ko‘makchi o‘mida kelishik qo‘shimchasi ishlatilavermaydi: Do ‘stiga yordamlashdi gapida jo‘nalish ke- lishigi qo‘shimchasi o‘mida ko‘makchini qo‘llab bo‘lmaydi.*

Ko‘makchi tahlili namunasi	
1. Sofmi yoki vazifadosh?	3. Ifodalagan ma'nosi.
2. Qaysi kelishikdagi so'zga bog'langan?	4. Qaysi so'zni qaysi so'zga bog'layapti?

Kun bo‘yi u odamlaming ko‘ngliga biron gap kelmaydigan qilib Jakni qidirdi. (Mopassan) [12]

Qachon oradan bu xijolatlik ko‘tarilib, gunohim yuvilganini his etsam, bu xususda qayta og‘iz ochmayman. (R.Tagor)

Eski «Zaporojes»ga suyanib turgan Ahadbey dardini tushunish, boshi uzra to‘planayotgan hisrat balolarini haydashga kimning qurbi etadi? (T.Malik)

Shu tarzda goh turmushning achchiq-chuchugidan zorlani- shib, goh hazil- mutoyiba bilan uzoq gaplashib o‘tirishdi. (O.)

Bundan o‘ttiz yil burun men u kishining yigirma ikki tomlik to‘plamini qo‘limdan qo‘ymasdan o‘qib chiqdim. (A.Q.)

Bog'lovchi va uning turlari

So'zlarni va qo'shma gapdagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi deb ataladi: *Maysa va daraxtlarga jon kiryapti, chunki bahorning iliq nafasi sezila boshlagan edi.*

Bog'lovchilar gapda qo'llanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Yakka holda qo'llanadigan bog'lovchilar: *va, ammo, chunki.* Bu bog'lovchilar gap tarkibida bir marta qo'llana oladigan bog'lovchilardir.

2. Takrorlangan holda qo'llanadigan bog'lovchilar: *yo...yo, yoki...yoki, goh...goh, xoh...xoh, bir...bir, ba'zan... ba'zan, dam...dam.* Bu bog'lovchilar (*yo...yo, yoki...yoki* bog'lovchilaridan tashqari) gap tarkibida faqat takroriy qo'llana oladigan bog'lovchilardir.

3. Bog'lovchilar vazifasiga ko'ra teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi. Teng bog'lovchilar: Bu bog'lovchilar so'zlarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni teng huquqli qilib bog'laydi va ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatlarni qay tarzqa ifodalashiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: 1) *biriktiruv bog'lovchilari: va, ham, hamda: Ham so'zi uyushiq bo'laklar oldidan kelgandagina bog'lovchi hisoblanadi: Ham akamni, ham ukamni tabriklashdi vasovg 'alar topshirishdi hamda dam olish uyiga yo'llanma bilan mukofotlashdi. Bilan ko'makchisi ham biriktiruvchi bog'lovchi (va) o'mida kelishi mumkin: Karim bilan Salim maktabga birga borishgan.* 2) *zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin (yoki lek), biroq, balki, holbuki.* 3) *ayiruv bog'lovchilari: yo, yoki, yoxud, yoinki, yo... yo, yoki...yoki, goh...goh, xoh...xoh, dam...dam. Bu bog'lovchilar uyushgan bo'laklarni yoki qo'shma gap qismlarini bir-biridan ayirib bog'laydi: Alijon goh menga, goh yerga qarab jim turaverdi. Yo sen borasan, yo men kelaman. Ba'zan ravishi, bir soni takrorlangan holda ayiruv bog'lovchisi bo'lib keladi: Ba'zan u keladi, ba'zan biz boramiz. Bir kuladi, bir yig'laydi.* 4) *inkor bog'lovchisi so'z va gaplarga inkor ma'nosini yuklaydigan bog'lovchidir: na...na: Unda na kitob bor, na daftar. Na o'qidi, na yozdi. Ko'rinyaptiki, bu bog'lovchi ishtirok etgan*

gaplarning kesimi bo'lishli shaklda keladi. [14]

I.2. Yordamchi so'z turkumlarining mazmuni va tuzilishi .

Ergashtiruvchi bog'lovchilar

Bu bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga ergashtirish yo'li bilan bog'laydi va quyidagi turlarga bo'linadi:

1) aniqlov bog'lovchilari: *ya'ni, -ki(-kim), toki:.. U ko'rdiki, kamchiliklar ko'p.* Ba'zan *-ki* ot turkumidagi so'zlar bilan birga kelib, ta'kidlash, uqtirish ma'nolarini anglatadi, bunda u bog'lovchi emas, yuklama sanaladi: *...ko'ksi to'la nuqul ordenki bir-biridan chiroyli.*

2) sabab bog'lovchilari: *chunki, negaki.* Ish o'z vaqtida bajarildi, *chunki* bunga puxta tayyorgarlik ko'rilgan edi. Ba'zan uchun ko'makchisi ham shu vazifada qo'llanadi: Ular yetib kelsin uchun Salimjon kutib turdi.

3) shart bog'lovchilari: *agar(da), garchi, garchand, gar, mabodo, basharti:* Agar ishimiz o'ngidan kelsa, bugun qaytib ketamiz.

Bog'lovchilarning kelib chiqishiga ko'ra turlari

1. Sof bog'lovchilar faqat bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlardir: *va, lekin, chunki, agar.*

2. Vazifadosh bog'lovchilar boshqa turkumlarga mansub bo'lib, o'zni bilan bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'zlardir. Bular quyidagi turkumlardan bog'lovchilarga o'tgan: 1) *bilan* ko'makchisi va bog'lovchisiga sinonim bo'lib kelganida bog'lovchi hisoblanadi: *Akam bilan (va) ukam kelishdi.* So'zlarni o'zaro tobe qilib bog'laganida ko'makchi hisoblanadi. 2) *ham, na, -u(-yu), -da* yuklamalari: *O'qishga qabul qilishdi ham (va) stipendiya tayinlashdi.* 3) *balki* modal so'zi: *Bundan keyin uning g'ayrati susaymadi, balki yana oshdi.*

Yuklama haqida umumiy ma'himot

Mustaqil soʻz va gaplarga qoʻshimcha maʼno beradigan yordamchilar yuklama deb ataladi. Yuklamalar tuzilishiga koʻra ikki xil boʻladi: 1) soʻz yuklamalar: *faqat, ham, axir, hatto*. Soʻz yuklamalar oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzlardan vergul bilan ajratilmaydi. 2) qoʻshimcha koʻrinishdagi yuklamalar: *-ku, -mi, -a, -gina*.

Yuklamalar ham sof yoki vazifadosh boʻlishi mumkin. Faqat yuklama guruhiga kiradigan *faqat, hatto, -mi, -ku* kabi birliklar sof yuklamalar hisoblanadi. Ayiruv-chegaralov yuklamalari oʻrnida qoʻllanadigan *yolgʻiz* (asli sifat) soʻzi vazifadosh yuklamadir: *Bu yolgʻiz nom, boshqa narsa emas*.

Yuklamalarning maʼno jihatdan turlari

1. Soʻroq-taajjub yuklamalari oʻzi ishtirok etayotgan gap mazmuniga soʻroq yoki taajjub maʼnolarini kiritadigan yuklamalardir. Bularga *-mi, -chi, -a(ya)* yuklamalari kiradi: *Nimaga yoʻqlaganimni bilarsiz-a, hofiz? (T.Malik)*

2. Kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari oʻzi qoʻshilgan soʻz maʼnosini yoki oʻzi ishtirok etgan gap mazmunini kuchaytirib, taʼkidlab ifodalaydigan yuklamalardir: Bularga *nahotki, axir, girt, hatto(ki), -oq(-yoq), -ki(-kim), -ku, -da, -u(-yu)* kabi yuklamalar kiradi: *Oʻldi demoq mumkin emas, axir uning oʻzi-ku, Tugʻilgandir inson uchun hayotning oʻzi boʻlib. (S.Z.)*

3. Ayiruv-chegaralov yuklamalari oʻzi bogʻlangan soʻzning maʼnosini ajratib yoki chegaralab keladigan yuklamalardir. Bularga *faqat, -gina (-kina, -qina)*, yuklamalari kiradi: *Darboza oldi jimjit, faqat oʻtin ortgan ikki-uch eshakkina bozor tomon dikillab borardi. (Mirm.)*

Oʻxshatish-qiyoslash yuklamalari oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzga oʻxshatish-qiyoslash maʼnolarini kiritadigan yuklamalardir. Bularga *xuddi, goʻyo, bamisli, misoli* soʻzlari kiradi: *Burgut va kalxatlar ham qayoqqadir gʻoyib boʻlgan, goʻyo osmon bagʻriga singib ketgan. (O.Y.)*

5. Gumon yuklamasi oʻzi bogʻlanib kelgan soʻzga noaniqlik, gumon maʼnolarini kiritadigan *-dir* qoʻshimcha koʻrinishidagi yuklamadir. Bu yuklama *-dir* kesimlik qoʻshimchasi bilan shakldoshdir. Qiyoslang: *Vatanni*

sevmoq iymondandir. (kes. qo‘sh.) - Uyiga yetib borgandir. (gum. yukl.)

Yuklamalarning yozilishi

1) -mi, -oq(-yoq), -gina (-kina,-qina), -dir yuklamalari o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shib yoziladi: Shu bugunoq ota- onasigagina emas, butun mahallaga yetib bormaydimi?

2) -chi,-ku,-u(-yu), -da, -a(-ya) yuklamalaridan oldin chiziqcha qo‘yiladi: Sen-chi? Keldi-ku!

3) faqat, ham, hatto, axir kabi so‘z yuklamalar ayrim yoziladi: Tog'larda hatto y oz oylarida ham yomg'ir yog'adi.

Bog'lovchi tahlili namunasi	
1. Sofmi yoki vazifadosh?	3. Vazifasiga ko'ra turi.
2. Qo'llanishiga ko'ra turi.	4. Nimalarni bog'lagan?
Yuklama tahlili namunasi	
1. Sofmi yoki vazifadosh?	3. Ma'nosiga ko'ra turi.
2. Tuzilishiga ko'ra turi.	

I.3. Yordamchi so‘z turkumlari turlari .

SamDU nashriyotida filologiya fanlari nomzodi Azamat Pardaevning “Til tizimida yordamchi so‘zlar” nomli monografiyasi chop etildi. U yordamchi so‘zlarning til tizimidagi o‘rni va taraqqiyot bosqichlarini yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yordamchi so‘zlarning so‘z turkumlari paradigmasidagi ma‘nosi, mustaqil so‘zlar bilan munosabati, tarixiy-tadrijiy genealogiyasi xamda evolyusion dinamikasi tadqiq etilib, yordamchi so‘zlar borasida jahon va o‘zbek tilshunosligida diaxron va sinxron aspektda amalga oshirilgan ishlar keng taxlil etilgan.[30. 124-126]

Muallif til tizimidagi yordamchi so‘z turkumlarini kompleks tavsiflash, leksik-grammatik ma‘nolari va nutqdagi vazifasini batafsil aniqlash yordamchi so‘zlar kategoriyasi paradigmatic strukturasini bosqichma-bosqich tadqiq etish va

ularning morfemik xususiyatlari, konnotativ aspektlarini til ichki qonuniyatlari bo'yicha taxlil etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Yordamchi so'zlarning bunday sinchiklab o'rganilishi tilimizning ichki taraqqayot qonunlarini belgilashda muxim omil bo'ladi. Binobarin, yordamchi so'zlarning paydo bo'lishi, mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlarga o'tishi, leksik ma'no bildiruvchi so'zlarning grammatik vositalarga aylanishi bevosita tilning ichki qonuniyatlari bilan bog'liq xodisalardir. Qachonki tilimizdagi xar bir elementar xodisagacha chuqur taxlil etilib, mukammal lingvistik tavsifi berilsagina o'zbek tilshunosligini rivojlanishning yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, deb xisoblashimiz mumkin bo'ladi. Zero, xar bir tilning milliy mentalitetiga xos ichki qonuniyatlari shu til materiallarini chuqur o'rganish asosidagina yaratiladi. Yordamchi so'zlar nutqda so'z va gaplarning mustahkam aloqasini ta'minlovchi zarur lisoniy vositalardan xisoblansa-da, tilshunoslikda ularning xamon yetarli nazariy baxosi berilgani yo'q. Shu nuqtai nazar- dan, ushbu tadqiqot til tizimidagi mazkur bo'shliqni to'ldiradi.

A.Pardaev o'zbek tili tizimidagi yordamchi so'zlarni tadqiq etishda masalaning ikki jihatiga: birinchisi – to'plangan faktik materiallar asosida tilimizda yordamchi so'z sifati- da tavsiflanishi mumkin bo'lgan til birliklarining to'liq hajmini, ya'ni yordamchi so'zlar turkumlari chegarasini aniqlashga; ikkinchisi - ushbu birliklarning funksional jihatiga, ya'ni ularning nutqda yoki gap strukturasida bajaradigan ma'no xususiyatlarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratgan. Ushbu taqdimot mohiyatini tadqiqotchi tomonidan yordamchi til birliklarining nutqda real vazifa bajarishi ustidan olib borgan kuzatishlari va bu boradagi taxlillarining nazariy bayoni tashkil etadi. Binobarin, o'zbek til- shunosligida shu paytgacha xam yordamchi vositalar ko'p bora taxlil etilib, muayyan fikrlar yuzaga kelgan bo'lsa-da, bu til faktlarini nazariy jihatdan bir tizimga solinmagani va ayrim jihatlar bo'yicha bir to'xtamga kelinmagani ushbu tadqiqot dolzarbligini belgilaydi. Shuningdek, antik tilshunoslikdan xozirgi o'zbek tilshunosligigacha bo'lgan davrda so'zlarni turkumlashda yordamchi so'zlarning o'zni va mavqeini o'rganilish tarixi kabi masalalar tadqiqotning asosiy ob'ekti sifatida belgilangan.

Monografiyada dastlab soʻzning til tizimidagi holatiga eʼtibor qaratilgan. Muallif buning sababi sifatida bugungi kunda soʻz bilan bogʻliq baxs-munozaralarning koʻpayganligini koʻrsatib, bu borada oʻz qarashlarini aniqlashtiradi, yaʼni, *soʻz turkumi*, *yordamchi soʻz* kabi masalalar xususida bir toʻxtamga keladi. Ayniqsa, yordamchi soʻzlarning soʻz ekanligini, ularning soʻz turkumi paradigmasidagi oʻrni mustahkam ekanligini asoslashga xarakat qiladi, garchi yordamchi soʻzlarning soʻz ekanligini tan olmayotgan tilshunoslar asosan koʻpincha koʻrinishidagi yuklamalarni nazarda tutishsa-da, b iz yordamchi soʻzlarning aksariyatini mustaqil soʻzlardan kelib chiqqanligini, fone- tik yaxlitlikka (sotsial. qiymatga ega tovushlar yigʻindisiga) ega boʻlib, soʻz qurish ishida ekanligini, ayrimlarining oʻz urgusi mavjudligini, gap tarkibida soʻzlar mavqeini oʻzgartira olishini va boshqa leksik-grammatik xususiyatlarini inobatga olgan xolda “soʻz” deb Xisoblaymiz” (148-bet). Ammo shu oʻrinda muallifning yordamchi soʻzlarning soʻz ekanligini asoslashdagi fikrlari yetarli emas, chuqur ilmiy asoslash kerak.

Monografiyada yana jaxon va oʻzbek tilshunosligida yordamchi soʻz turkumlariga bagʻishlangan tadqiqotlar xam keng taxlil etilib umumiy tavsifi berilgan. Oʻzbek tilshunosligida yordamchi soʻz turkumlarini tadqiq etish tarixi, yordamchi soʻz turkumlarining kelib chiqish sabablari, ularning paydo boʻlish usullari va tasnif etish tamoyillari tilga olinib, turkologlar, xususan, oʻzbek olimlari asarlari asosida ularning tasnifi, etimologiyasi xamda maʼno va sintaktik vazifalari bayon etilgan. Dastlab ularning kelib chiqish tarixiga qisqacha tavsif berilib, u yoki bu matnda qoʻllaniladigan morfologik-sintaktik vazifalari va maʼnolari taxlil etilgan.

Muallif tilshunoslikda koʻp yillar mobaynida yordamchi soʻz turkumlari chegarasini aniqlash boʻyicha yagona bir toʻhtamga kelinmaganligining bir qator sabablarini koʻrsatadi. Darxaqiqat, koʻp tadqiqotlarda yordamchi soʻzlar turkumiga undovlar, ravishlar, baʼzi kelishik qoʻshimchalari kiritib kelingan boʻlsa, yuklamalarning baʼzilari bogʻlovchilar guruxiga, ayrimlari modal soʻzlar

sirasiga kiritilgan xolatlar xam uchraydi. Umuman, garb yoki rus tilshunosligida xam bunday chalkashlikning yuzaga kelishiga sabab - yordamchilar sirasiga kirgizilgan semantik-struktural so'zlarda atash xususiyatining mavjud emasligi bo'lib, ular (ya'ni atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlar) shunga ko'ra yoppasiga yordamchilarga qo'shib yuborilgan edi. Muallif o'zbek tilshunosligida bu masala o'tgan asrning o'rtalarida bartaraf etilib, yordamchi so'z turkumlari doirasi aniq chegaralanganligini ta'kidlaydi.

Umuman, ushbu monografiyada nafaqat yordamchi so'z turkumlarining til satxi va nutqdagi vazifa bajarishi, balki ularning morfologik va sintaktik vazifalarda namoyon bo'lishining o'ziga xosligi bilan bog'liq masalalarning xam echimi berilgan xamda bu so'zlarning faol funksional faoliyati ularning sintaktik realizatsiyasiga xam ta'sir o'tkazishi xaqidagi muxim fikrlar o'quvchi xukmiga xavola qilingan.

Mazkur tadqiqot nafaqat o'zbek tilshunosligining ayrim nazariy muammolarini taxlil etishda, balki turkiy tillardagi yordamchi so'zlar qiiyosiy-tarixiy tadrijiy taraqqiyotini kuzatishda xam qo'l keladi. Shuningdek, zamonaviy o'zbek tili grammatik nazariyasining mukammallashishiga xamda morfologiya, leksikologiya va sintaksis soxalarining takomillashuviga muhim xissa bo'lib qo'shiladi.

II.Bob. Fransuz tilida yordamchi soʻz turkumlari.

II.1. Fransuz tilida yordamchi soʻz turkumlari haqida tushuncha.

Fransuz tilidagi soʻzlar oʻz hususiyatlariga koʻra maʼlum soʻz turkumlariga boʻlinadi. Soʻzlarning biror turkumga mansubligini aniqlashda, birinchidan, ularning maʼno hususiyati hisobga olinadi. Masalan: un livre, un cheval, la route kabi soʻzlar predmet yoki predmetlik tushunchasini: blanc, rouge, grand, serieux, sigari soʻzlar predmetlarning belgisini, rangini, shaklini, harakterini: aller, prendre, travailler, etre soʻzlari esa predmetning harakatini yoki holatini anglatadi.

Ikkinchidan, ularning morfologik hususiyatiga eʼtibor beriladi (soʻzlarning rod va son, zamon, mayl, daraja, shahs – son kabi formalariga ega boʻlishi).

Uchinchidan, soʻzlarni turkumlarga ajratishda ularning gapda qanday sintaktik vazifada kelishiga ham qaraladi. Masalan, predmetni anglatuvchi soʻzlar gapda koʻpincha ega, toʻldiruvchi vazifasini, harakatni bildiruvchi soʻzlar esa kesim vazifasini bajaradi. [23.10]

Hozirgi fransuz tilida quyidagi soʻz turkumlari mavjuddir.

I. Nominativ funksiyaga ega boʻlgan mustaqil maʼnoli soʻzlar:

- 1) ot (le nom),
- 2) sifat (l'adjective),
- 3) son (le nom de nombre),
- 4) olmosh (le pronom),
- 5) fe'l (le verbe),
- 6) ravish (l'adverbe),

II. Yordamchi soʻzlar:

- 1) artikllar (les articles),
- 2) predloglar (les prepositions),
- 3) bogʻlovchilar (les conjonctions),
- 4) undov soʻzlar (les interjections).

Yuqorida ko'rsatilgan so'z turkumlari o'zlarining anglatgan ma'nolariga va bajargan vazifalariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) Mustaqil so'zlar (Mots significatifs).

2) Yordamchi so'zlar (Mots outils).

Yuqorida ko'rsatilgan so'zlar tasnifi har doim qat'iy emasdir. Ayrim mustaqil ma'noga ega bo'lgan so'zlar ba'zan yordamchi so'zlarga aylanishi mumkin.

Masalan: il vient (mustaqil so'z) a temps. Il vient (yordamchi so'z) d'arriver.

Les conjonctions – bog'lovchilar.

Bog'lovchilar mustaqil gaplarni bir-biriga bog'lashda qo'llanadi.

Bog'lovchilar sodda va qo'shma shakllarga ega.

et –	va	Je prendrai ce livre <u>et</u> je le lirai etc.
ou –	yoki	Je viendrais vous voir <u>ou</u> vous m'écrirez etc.
que -	... ni	Il nous dit <u>que</u> Pierre partira ce soir etc.
si –	agar	<u>Si</u> tu reviens à temps je serai content etc.
ni –	ham	Ni l'un, ni l'autre n'est pas venu etc.
quand –	qachonki	Je vous suivrai <u>quand</u> même vous me diriez de rester ici etc.
parce que –	chunki	Elle a reçu une bonne note <u>parce qu'</u> elle avait travaillé pendant toute l'année etc.
tandis que –	shu paytda	<u>Tandis que</u> le père lisait le journal nous l'écoutes etc.
avant que –	avvalo	Aérez la classe <u>avant que</u> le professeur y entre etc.
aussitôt que –	... gach	<u>Aussitôt que</u> la leçon est terminé les élèves sont sortis de la classe etc.

jusqu'à ce que - ... gacha Attendez-moi jusqu'à ce que je revienne etc.

Prépositions – predloglar

Fransuz tilida kelishik bo'lmaganligi sababli, ular o'rnida predloglar qo'llanib, so'zlarni bir-biriga bog'lashda katta ahamiyatga ega.

Ko'p qo'llanadigan predloglardan namunalar.

à -	... da, ga	Je suis <u>à</u> l'école; je vais à l'école etc.
de -	... dan	Je sors <u>de</u> la salle. Le livre <u>de</u> mon ami etc.
dans -	... da, dan	Il entre <u>dans</u> la salle. Il viendra <u>dans</u> 2 jours etc.
avec -	... bilan	Il écrit <u>avec</u> un stylo etc.
pour -	... uchun	La mère achète des cadeaux <u>pour</u> ses enfants etc.
depuis -	... dan beri	Il est malade depuis deux jours etc.
avant -	... oldin	Il est arrivé <u>avant</u> nous etc.
après -	... so'ng, keyin	<u>Après</u> la leçon il reste à la bibliothèque etc.
sans -	... siz	Il a écrit <u>sans</u> fautes etc.
chez -	... ga, da	Il viendra <u>chez</u> nous etc.
en -	... da	<u>En</u> automne on cueille le coton etc.
parmi -	orasida, ichida	<u>Parmi</u> ces romans je prends celui-ci etc.
pendant -	davomida	Il a plu <u>pendant</u> toute la nuit etc.
par -	... dan, tomonidan	Cette composition a été écrite <u>par</u> les étudiants etc.
entre –	o'rtasida, orasida	Les relations <u>entre</u> de ces pays se développent etc.
à l'aide de –	yordamida	<u>A l'aide de</u> quoi as-tu traduit ce texte? etc
à partir de -	... dan boshlab	<u>A partir d'</u> aujourd'hui ... etc.
jusqu'à -	... gacha	Aujourd'hui nous travaillons <u>jusqu'à</u> deux heures

etc.

au cours de – davomida

Au cours de la dernière semaine nous avons
beaucoup travaillé etc.

Près de – oldida

Il t'attend près de l'institut etc.

Atoqli fransuz yozuvchisi Anri Barbyus “Til – bu butun bir hayotdir.” – deb yozgan edi. Darhaqiqat, til butun bir hayot bo’lib, odamlar bilgan, ko’rgan, o’ylaganlarini va qilayotgan ishlarini so’z orqali ifoda etadi.[24]

Roman tillari ichida eng chiroyli til hisoblangan fransuz tili o’zining lug’aviy boyligi, musiqaviyligi va mayinligi, shuning bilan birga, grammatik jihatdan murakkabligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Shuning uchun ham ingliz tili – ishbilarmonlar tili, nemis tili – buyruq va ko’rsatmalar tili, fransuz tili esa – muhabbat tili deb bejiz aytilmagan bo’lsa kerak.

Talabalarga fransuz tilini o’rgatishdan asosiy maqsad bo’lg’usi o’qituvchilarning fransuz adabiy tilida og’zaki va yozma nutq savodhonligini oshirish, turli sohalarda fransuz tilida o’z fikrlarini ravon ifoda eta olish malakalarini xosil qilishdir. Shuning uchun ham fransuz tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo’yicha zarur nazariy bilimlarni egallash, ularni amaliyotda qo’llay olish, fransuz tilida hech bir to’siqsiz, qiynalmay muloqot qila olish talab etiladi. Bunga erishish uchun biz fransuz tili qonun-qoidalarini o’zbek tili bilan qiyoslab o’rgatishga katta ahamiyat beramiz.[10]

Ushbu ishimizda fransuz tilidagi predloglarning grammatik va semantik vazifalari xaqida so’z yuritamiz.

Fransuz tili grammatikasida predloglarning o’rni va ahamiyati katta bo’lib, ular gap tuzilishi, so’zlarning leksik ma’nosiga ta’sir etadi. Jumladan “de” predlogini olaylik.

“De” predlogi ma’no jihatidan o’zbek tilidagi chiqish, o’rin-payt va tuhum kelishigidagi -da, -dan, -dagi, -ni qo’himchalarigi to’g’ri keladi, ya’ni bu predlogning gapdagi o’rni, roli va bajarayotgan vazifasi taxlil qilinsa, bu predlog ma’nosiga ko’ra ish-xarakatning sodir bo’lgan joyini, vaqtini, uning sababini,

qanday xolatda bajarilganligini, o'lchami va farqini, nima bilan bajarilganligi, nima xaqida gap borayotganligini bildirib kelib, o'zbek va rus tillaridagi kelishiklarning deyarli barcha qo'himchalari vazifasini bajarishi mumkin. Jumladan:

1. "De" predlogi o'z ma'nosiga ko'ra o'rin-joyini ifodalab kelganda o'zbek tilidagi -da, -dan qo'himchalariga to'g'ri keladi. Misol:

De Tachkent á Paris - Toshkentdan Parijga

Loin de la maison - Uydan uzoqda

2. "De" vaqtni ifodalab kelganda -dan, -dagi, -da, -gacha qo'shimchalarni vazifalarini bajaradi. Misol:

De jour en jour - kundan kunga

Le journal de dix janvier - o'ninchi yanvardagi gazeta

Ils sont arrivés de nuit - ular tunda keldilar

De matin au soir - ertadan kechgacha

Elle n'a pas dormi de la nuit - u tun bo'yi ihlamadi

3. "De" predlogi biror narsaning kelib chiqishini, yo'nalishini, hususiyatini ifodalab, otning aniqlovchisi vazifasida ham keladi. Misol:

Les écoliers de Tachkent - Tohkent o'quvchilari

La robe de Karima - Kariimaning ko'ylagi

Une table de bois - yog'och stol

Un manuel de français - fransuz tili darsligi

Un professeur de chimie - himoya o'qituvchisi

Un garçon de six ans - olti yoshli bola

4. Ish-xarakatning sodir bo'lish sababini bildirish uchun xam "de" ishlatiladi. Misol:

Il est fier de ses success - u o'z muvaffaqiyatlaridan mag'rur

- uyatdan qizarmoq

Il est puni de ses fautes - u o'z ayblari uchun jazolandi

5. Bu predlog ish-harakatning qay yo'sinda bajarilganligini ham ifodalab keladi. Misol:

Parler d'une voix basse - past ovozda gapirmoq

Manger de bon appétit - ishtaha bilan emoq

Frapper de toutes ses forces - bor kuchi bilan taqqilatmoq

Fransuz tilida kelishiklar mavjud bo'lmaganligi sababli predloglar qo'llanadi. Ushbu predloglar o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalariga mos keladi.

Fransuz tilida sodda

(à, de, dans, en, pour, avec, sur, sous, chez, sans, entre, parmi, contre etc) va yasama (à cause de, à côté de, au milieu de, autour de etc) predloglar mavjud.

à predlogi jo'nalish xamda o'rin-payt kelishigi qo'shimchalariga mos keladi.

de predlogi esa qaratqich xamda chiqish kelishigi qo'shimchalarini ifodalaydi.

Ushbu predloglar quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. O'rin-joy ma'nosini anglatadi xamda yo'nalishni ko'rsatadi: Il est à Paris. U Parijda. Il est de Paris. U Parijlik. Je vais à l'institut. Men institutga ketyapman.
2. Paytni anglatadi: Les leçons commencent à huit heures et demi. Darslar soat 8³⁰ da boshlanadi. Je prepare mes devoirs de 18 heures à 20 heures. Men soat 18 dan 20 gacha dars tayyorlayman.

3. Narsalarning qanday maxsulotdan tayyorlangani xamda nima maqsadga qaratilganligini bildiradi: un papier à lettres – pochta qog'ozi, une table de bois - yog'och stol, une brosse à dents - tish cho'tkasi.

4. Xarakatning xolatini anglatadi: Je vais à la maison à pied. Men uyga piyoda ketyapman.

dans predlogi xam vaqt va o'rin-joy ma'nosini ifodalaydi xamda o'zbek tilidagi -ga, -da kelishik qo'himchalariga mos keladi: Il est dans sa chambre. U o'zining honasida. Je viendrai dans trois heures. Men uch soatdan keyin kelaman.

chez predlogi ot bilan birikib o'rin xoli vazifasida, aniqlovchi vazifasida keladi:

Notre professeur est chez le doyen.

O'qituvchimiz dekan (honasida) oldida.

Son père est chez le coiffeur.

Uning otasi sartaroshhonada.

chez Molière Molierda

chez Balzac Balzakda (asarlarida ma'nosida)

chez Alicher Navoi Aliher Navoiyda (Navoiy asarlari nazarda tutiladi)

chez les Ouzbeks o'zbeklarda

chez les Français fransuzlarda

uyingizda — chez vous, unikida — chez lui, senikida — chez toi, ularnikida — chez eux kabi tarjima qilinadi.

Ce soir je suis chez moi. Bugun kechqurun uyimda bo'laman.

Venez chez nous demain. Ertaga biznikiga keling.

Chacun chez soi. Xar kim o'zinikida.

Nous rentrons chez nous. Biz uyimizga qaytamiz.

Chez predlogi faqat shahslarga nisbatan qo'llanadi.

Depuis predlogi ot bilan birikib o'rin va payt xoli vazifasida keladi:

On vous attend depuis une heure. Sizni bir soatdan buyon kutishyapti.

Vous êtes absents depuis cinq jours. Besh kundan buyon siz yo'qsiz.

Il te cherche depuis vingt minutes. U seni yigirma daqiqadan buyon qidiryapti.

Depuis cette station jusqu'à notre rue il y a encore trois stations. Bu bekatdan bizning ko'chagacha yana uchta bekat bor.

Depuis predlogi bir necha turg'un iboralar yasashda xam qo'llanadi:

depuis longtemps - anchadan beri

depuis quand? - qachondan buyon?

Il ne vient pas chez elle depuis longtemps. Anchadan buyon y unikiga kelmadi.

“à” va “de” predloglari quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. “à” predlogi:

1. Yo'nalihni ifodalaydi. ex: Nous allons à l'Université. – Biz universitetga boryapmiz.

2. O'rinni ifodalaydi. ex: Ils sont à Tachkent. – Ular Tohkentda.

3. Vaqtni ifodalaydi. ex: Les cours commencent à 8 heures. – Darslar soat 8 da boshlanadi.

4. Qaratqich kelihigi ma'nosida. ex: Cette revue est à ma soeur. – Bu opamning jurnali.

2. “de” predlogi:

1. Chiqih kelishigi ma’nosida. ex: Nous sortons de la salle. – Bizlar honadan chiqyapmiz.
2. Qayerdan ekanligini ifodalaydi. ex: Ils sont de Boukhara. – Ular Buhorolik.
3. Vaqtni ifodalashda. ex: Il travaille à l’usine de 8 heures à 4 heures. – U zavodda soat 8 dan soat 4 gacha ishlaydi.

Qaratqich kelishigi ma’nosida. ex: C’est la serviette de Karim. – Bu Karimning portfeli.

chez predlogi ot bilan birikib, o’rin holi vazifasida, aniqlovchi vazifasida keladi:

Notre professeur est chez le doyen.

O’qituvchimiz dekan (honasida) oldida.

Son père est chez le coiffeur.

Uning otasi sartaroshhonada.

chez Molière

Moliyerda

chez Balzac

Balzakda (asarlarida ma’nosida)

chez Alicher Navoi

Alisher Navoiyda (Navoiy asarlari nazarda tutiladi).

chez les Ouzbeks

o’zbeklarda

chez les Français

fransuzlarda

chez predlogi mustaqil olmoshlar bilan qo'llanganda uyimda - chez moi, uyida - chez soi, uyimizda -chez nous, uyingizda - chez vous, unikida - chez lui, senikida - chez toi, ularnikida - chez eux kabi tarjima qilinadi.

Misollar:

Ce soir je suis chez moi.

Bugun kechqurun uyimda bo'laman.

Venez chez nous demain.

Ertaga biznikiga keling.

Chacun chez soi.

Xar kim o'zinikida.

Nous rentrons chez nous.

Biz uyimizga qaytamiz.

Chez predlogi faqat shahslarga nisbatan qo'llanadi.

Depuis predlogi ot bilan birikib o'rin va payt xoli vazifasida keladi:

On vous attend depuis une heure.

Sizni bir soatdan buyon kutishyapti.

Vous êtes absents depuis cinq jours.

Besh kundan buyon siz yo'qsiz.

Il te cherche depuis vingt minutes.

U seni yigirma daqiqadan buyon qidiryapti.

Les Pyrénées s'étendent depuis Atlantiques jusqu'à la Méditerranée.

Pireney tog'lari Atlantika okeanidan boshlab O'rtayer dengizigacha cho'zilgan.

Depuis cette station jusqu'à notre rue il y a encore trois stations.

Bu bekatdan bizning ko'chagacha yana uchta bekat bor.

Depuis predlogi bir necha turg'un iboralar yasashda xam qo'llanadi:

Masalan:

depuis longtemps anchadan beri

depuis quand? qachondan buyon?

Il ne vient pas chez elle depuis longtemps.

Anchadan buyon y unikiga kelmadi.

Depuis quand êtes-vous ici?

Qachondan buyon bu erdasiz?

Depuis quand le connaissez-vous?

Qachondan buyon uni bilasiz?

"A" predlogi fransuz tilida eng ko'p qo'llanuvchi predloglardan bo'lib, kontekstga qarab turli kelishiklar o'rnida va turli ma'nolarda qo'llanadi:

1. O'rin va paytni anglatadi:

Il est à la campagne. U qishloqda.

Aller à sa place. O'z o'rniga bormoq.

Il va à l'école. U maktabga boryapti.

A quelle heure viendrez-vous? Qachon kelasiz?

Nos cours commencent à 9 heures du matin.

II.2. Yordamchi soʻz turkumlari va uning turlari.

Fransuz tilida yordamchi soʻz turkumlariga bogʻlovchi – la conjonction, predlog – la preposition, artikl – l'article, undov soʻz – l'interjection lar kiradi.

Mazkur paragrafda yordamchi soʻz turkumlari va uning turlari toʻgʻrisida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Darslarimiz ertalab soat 9 da boshlanadi.

2. Xarakatning xolatni anglatadi:

Je vais à l'Université à pied. Men universitetga piyoda boraman.

Parler à la légère. Engil gapirmoq.

3. Kimga va nima maqsadga qaratilganligini bildiradi:

Ce livre est à moi. Bu kitob meniki.

Machine à coudre. Tikuv mashinasi.

A ma femme bien-aimée. Sevimli rafiqamga.

Une machine à laver. Kir yuvish mashinasi.

C'est à vous. Bu sizga.

Une brosse à dents. Tish choʻtkasi.

4. Shahslarning oʻziga hos hususiyatlarini koʻrsatadi:

Une jeune fille aux yeux bleus. Koʻk koʻzli yosh qiz.

Un homme aux cheveux gris. Oq sochli kishi.

Un étranger aux cheveux noirs. Qora sochli chet ellik.

5. Vositali toʻldiruvchi vazifasida keladi:

Il faut penser aux examens. Imtixonlar xaqida oʻylash kerak.

Ecrire au crayon.

Qalam bilan yozmoq.

Ils s'intéressent à la langue française. Ular fransuz tiliga qiziqadilar.

6. Narsalarning qanday maxsulotdan tayyorlanganini bildiradi.

Une tarte aux cerises.

Olchali tort.

Un café au lait.

Sutli kofe.

Un gâteau aux pommes.

Olmali pirog.

"DANS" prsdlogi -ga, -da kelishik qo'himchalari o'rnida ishlatiladi:

1. Aniq joyni ifodalaydi:

Ils sont dans la salle d'études.

Ular o'qish zalidalar.

Mes vêtements sont dans l'armoire. Mening kiyimlarim javonda,

2. Voqea va xodisalarning kelgusida bajarilish vaqtini anglatadi va gapda payt holi vazifasida keladi. Ushbu predlog qachon? qaerga? qaerda? so'roqlariga javob beradi.

Nous reviendrons à Tachkent dans trois mois.

Biz Tohkentga uch oydan so'ng qaytamiz.

Par" predlogi. Bu predlog ot bilan birikib, quyidagi vazifalarda keladi:

1. O'rin xoli vazifasida:

Ular bu ehikdan chikib ketdilar.

Ils sont sortis par cette porte.

Bu erdan chiqing!

Passez par ici!

2. Payt xoli vazifasida:

Baxorning chiroyli tongida sayr qilishga ketishdi.

Ils sont allés se promener par une belle matinée de printemps.

3. Sabab xoli vazifasida:

Onam odati bo'yicha barvaqt turadi.

